



UDK: 172.4

Go‘zal NAJMIDINOVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazi yetakchi ilmiy xodimi, Buxoro, O‘zbekiston
E-mail: najmidinovaguzal2024@gmail.com ORCID: 0009-0002-1207-929X

DSc, prof. B.Turdiyev taqrizi asosida

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF TURKISH CULTURAL INTEGRATION AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the socio-philosophical essence of the process of Turkish cultural integration and its role in the development of Uzbekistan. The study highlights the strengthening of historical, cultural and spiritual ties between Turkic peoples in the context of globalization, the development of cooperation based on common cultural values. It also reveals the impact of Turkish cultural integration on preserving national identity, strengthening social unity and innovative development. The article substantiates the increasing activity of Uzbekistan in regional and global processes through mechanisms of intercultural dialogue, mutual enrichment and cooperation. As a result, Turkish cultural integration is interpreted as an important socio-philosophical factor in the sustainable development of the country and increasing its influence in the international arena.

Keywords: Turkic cultural integration, development of Uzbekistan, globalization, national identity, social unity, intercultural dialogue, regional cooperation, spiritual heritage, innovative development, sustainable development.

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ТУРЕЦКОЙ КУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ И ЕЕ РОЛЬ В РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье представлен всесторонний анализ социально-философской сущности процесса турецкой культурной интеграции и ее роли в развитии Узбекистана. В исследовании подчеркивается укрепление исторических, культурных и духовных связей между тюркскими народами в контексте глобализации, развитие сотрудничества на основе общих культурных ценностей. Также раскрывается влияние турецкой культурной интеграции на сохранение национальной идентичности, укрепление социального единства и инновационное развитие. В статье обосновывается возрастающая активность Узбекистана в региональных и глобальных процессах посредством механизмов межкультурного диалога, взаимного обогащения и сотрудничества. В результате турецкая культурная интеграция рассматривается как важный социально-философский фактор устойчивого развития страны и повышения ее влияния на международной арене.

Ключевые слова: тюркская культурная интеграция, развитие Узбекистана, глобализация, национальная идентичность, социальное единство, межкультурный диалог, региональное сотрудничество, духовное наследие, инновационное развитие, устойчивое развитие.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURKIY MADANIY INTEGRATSIYANING IJTIMOYIY-FALSAFIY ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada turkiy madaniy integratsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda uning O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda globallashuv sharoitida turkiy xalqlar o‘rtasidagi tarixiy, madaniy va ma‘naviy aloqalarning mustahkamlanishi, umumiy madaniy qadriyatlar asosida hamkorlikning rivojlanishi yoritiladi. Shuningdek, turkiy madaniy integratsiyaning milliy identitetni saqlash, ijtimoiy birlikni mustahkamlash va innovatsion rivojlanishga ta‘siri ochib beriladi. Maqolada madaniyatlararo muloqot, o‘zaro boyish va hamkorlik mexanizmlari orqali O‘zbekistonning mintaqaviy va global jarayonlardagi faolligi ortib borayotgani asoslab beriladi. Natijada turkiy madaniy integratsiya mamlakatning barqaror taraqqiyoti va xalqaro maydondagi nufuzini oshirishda muhim ijtimoiy-falsafiy omil sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: turkiy madaniy integratsiya, O‘zbekiston taraqqiyoti, globallashuv, milliy identitet, ijtimoiy birlik, madaniyatlararo muloqot, mintaqaviy hamkorlik, ma‘naviy meros, innovatsion rivojlanish, barqaror taraqqiyot.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bir sharoitda milliy va mintaqaviy madaniyatlarining o‘zaro aloqalari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ayniqsa, tarixiy, til va ma‘naviy ildizlari mushtarak bo‘lgan turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy integratsiya jarayoni nafaqat madaniy yaqinlashuvni, balki ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etib, mamlakatning barqaror taraqqiyoti va xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng milliy o‘zlikni anglash, boy tarixiy-madaniy merosni tiklash va rivojlantirish bilan bir qatorda, turkiy dunyo bilan aloqalarni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratdi. Bu borada turkiy davlatlar o‘rtasida madaniy, ilmiy va ma‘rifiy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslar, qo‘shma loyihalar va institutlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Natijada umumiy madaniy qadriyatlar asosida integratsiyalashuv jarayoni jadallashib, bu O‘zbekistonning mintaqaviy hamkorlikdagi rolini oshirmoqda.

Turkiy madaniy integratsiya jarayoni, bir tomondan, milliy identitetni saqlash va mustahkamlashga xizmat qilsa,

ikkinchi tomondan, globallashuv sharoitida ochiqlik va o'zaro boyish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy birlikni ta'minlash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va innovatsion taraqqiyot uchun zarur muhitni shakllantiradi. Shu jihatdan, turkiy madaniy integratsiya nafaqat madaniy hodisa, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab jarayon sifatida qaraladi.

Mazkur maqolaning maqsadi turkiy madaniy integratsiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish, uning O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rini tahlil qilish hamda ushbu jarayonning jamiyat rivojiga ko'rsatayotgan ta'sirini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Integratsiya (lotincha integratio – tiklash yoki to'ldirish) – bu tashkilotlar, tarmoqlar, mintaqalar yoki davlatlarning o'zaro moslashishi va yagona bir butunlikka birlashishi jarayonidir [11], [12].

Xorijiy tadqiqotchilar integratsiya va turkiy hamkorlikning turli jihatlarini o'rgangan. Jumladan, S.Mukhamedzhanova va A.Shaldarbekova turkiy integratsiyaning bosqichlari va institutsional rivojlanishini tahlil qilgan [7], S. Ergenç esa turkiy dunyo integratsiyasining strategik yo'nalishlarini yoritgan [6]. M.Erbay va M.M.Aslan madaniy hamkorlik va media orqali “yumshoq kuch” ta'sirini o'rgangan [5], F.Rahimi esa til va alifbo birligi masalasini ijtimoiy-lisoniy jihatdan tahlil qilgan [9].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan integratsiyaning nazariy va ijtimoiy jihatlarini keng tadqiq etilgan. Xususan, Z. Artikov integratsiyaning globallashuv bilan bog'liqligini asoslagan [1], N.Egamberdiyeva oila institutining ijtimoiy barqarorlikdagi o'rini yoritgan [4], J.Atajanov globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlar transformatsiyasini tahlil qilgan [3], hamda X.Nafiddinova oila va milliy o'zlik masalalarining tarixiy-ijtimoiy asoslarini o'rgangan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot muammoni har tomonlama yoritish maqsadida kompleks va fanlararo yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotda tizimli-funksional yondashuv asosida oila va integratsiya jarayonlari ijtimoiy tizim barqarorligini ta'minlovchi mexanizmlar sifatida tahlil qilinadi (T.Parsons nazariyasi). Evolyusion va tarixiy-genetik usul orqali oilaviy qadriyatlar hamda integratsion tuzilmalarning shakllanishi va rivojlanish dinamikasi o'rganiladi.

Shuningdek, neofunksionalizm (“spillover”) nazariyasi asosida integratsiyaning madaniy sohadangina emas, balki iqtisodiy va ta'lim sohalariga kengayish jarayonlari izohlanadi. Hujjatlar tahlili yordamida xalqaro strategiyalar, xususan, “Turkiy dunyo – 2040” konsepsiyasi hamda me'yoriy-huquqiy manbalar o'rganiladi. Bundan tashqari, sotsiologik va semantik tahlil orqali “oila” va “oilaviy qadriyatlar” tushunchalarining mazmuni ochib berilib, empirik ma'lumotlar umumlashtiriladi. Qiyosiy yondashuv asosida esa turkiy va G'arb jamiyatlaridagi oilaviy modellar solishtiriladi.

Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, mantiqiy izchilligi va obyektivligini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turkiy madaniy integratsiya nafaqat gumanitar hamkorlik, balki mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotning muhim omilidir. Hozirgi kunda turkiy dunyo taxminan 300 million aholi, 4,5 million km² hududga ega bo'lgan yirik geosiyosiy makonni tashkil etadi.

O'zbekiston misolida oila institutining sotsiologik tahlili natijalariga ko'ra, respondentlarning 81,4 %i o'z oilasini baxtli deb baholagan. Oila qurishning asosiy motivlari sifatida avlod qoldirish (37,1%), sevimli inson bilan yashash (25,8%) va diniy qadriyatlar (25,6%) qayd etilgan. Shuningdek, respondentlarning 53% i baxtli oilaning asosiy mezoni sifatida o'zaro hurmat, ishonch va tushunishni

ko'rsatgan [13]. Shu bilan birga, globallashuv va internetning kengayishi an'anaviy oilaviy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatayotgani va yoshlar ongida oila muqaddasligini mustahkamlash zarurligi aniqlangan.

Turkiyada ta'lim texnologiyalari bo'yicha o'rganilgan 64 ta doktorlik dissertatsiyasi tahlili natijasida tadqiqotlarning 2/3 qismi eksperimental metodologiya asosida olib borilgani aniqlangan [10]. Bu jarayonda ta'lim texnologiyalari kompyuter asosidagi o'qitishdan veb-platformalar va onlayn ta'lim tizimlariga o'tib borayotgani kuzatilgan. Biroq tadqiqotlarda ichki va tashqi validlik bilan bog'liq muammolar mavjudligi hamda ko'pchilik ishlarda norasmiy ta'lim (masalan, digital parenting) yetarlicha yoritilmagani aniqlangan.

Lisoniy tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1934-yilda o'zbek alifbosidan ı, ö, ü unillarining chiqarilishi tilning fonetik tizimi va singarmonizm qonuniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu holat hozirgi kunda ayrim so'zlarning noto'g'ri talaffuz qilinishida (masalan, “O'zbek” → “Ozbek”) namoyon bo'lmoqda. Shu sababli 34 harfli umumturkiy alifboni joriy etish integratsiyani kuchaytirish va yagona axborot makonini shakllantirishning muhim sharti sifatida baholanmoqda.

Shuningdek, turkiy davlatlar integratsiyasi uch bosqichda rivojlangan: I bosqich (1992–2009) – institutsional shakllanish (TÜRKSÖY tashkil etilishi); II bosqich (2009–2020) – strategik rivojlanish (Turkiy kengash tashkil topishi); III bosqich (2021-yildan) – yangi sifat bosqichi (Turkiy davlatlar tashkiloti va “Turkiy dunyo – 2040” strategiyasi).

Neofunksionalizm nazariyasiga ko'ra, madaniy integratsiya “spillover” effekti orqali iqtisodiy va siyosiy sohalariga ham kengaymoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, turkiy integratsiya O'zbekiston taraqqiyotida muhim omil bo'lib, u ayniqsa “yumshoq kuch” orqali samarali namoyon bo'lmoqda. Xususan, turk seriallari orqali shakllanayotgan “oila ichidagi madaniy muhit” yoshlar orasida umumiy qadriyatlarni singdirishda amaliy va ta'sirchan vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Tadqiqot doirasida o'rganilgan manbalar va tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirildi:

Ilmiy xulosalar

Integratsiyaning poydevori: Turkiy davlatlar integratsiyasi faqat iqtisodiy yoki siyosiy manfaatlar emas, balki umumiy “turkiy kod” va tarixiy-madaniy ildizlarga asoslangan ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Madaniy integratsiya boshqa sohalaridagi (iqtisodiyot, xavfsizlik) hamkorlikni chuqurlashtiruvchi “pereliv” (spillover) effekti vazifasini o'taydi.

Oila instituti va raqamli transformatsiya: Oila turkiy jamiyatda ijtimoiy hayotning abadiyligini va tarbiyaning uzluksizligini ta'minlovchi birlamchi ijtimoiy guruhdir. Biroq, raqamli globallashuv sharoitida an'anaviy oilaviy asoslarning qadrsizlanishi va “G'arb psixologiyasi” yondashuvlari ta'sirida oila muqaddasligi tushunchasining zaiflashishi kuzatilmoqda.

Ta'lim texnologiyalaridagi metodologik uzilish: Turkiyada EdTech bo'yicha o'tkazilgan 64 ta doktorlik dissertatsiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlarning aksariyati eksperimental modelda bo'lib, onlayn ta'limga yo'naltirilgan. Ammo nazariya va amaliyot o'rtasida jiddiy uzilish mavjud bo'lib, ota-onalar ishtirokidagi “raqamli tarbiya” (Digital parenting) masalalari yetarli darajada ilmiy asoslanmagan.

Til va alifbo yaxlitligi strategiyasi: 1934-yildagi islohotlar natijasida o'zbek alifbosidan ı, ö, ü unillarining chiqarilishi tilning fonetik tabiatiga va singarmonizm qoidalarga shikast yetkazgan. Raqamli asrda turkiy tillarning

o'zaro tushunarligini ta'minlash uchun yagona alifbo tizimi strategik zaruriyatdir.

Media – “yumshoq kuch” vositasi: Turk seriallari (masalan, “Çaliquşu”) turkiy xalqlar orasida “oila ichi madaniyatlashuv” muhitini yaratib, umumiy qadriyatlarini yoyishda eng samarali vositaga aylangan.

Amaliy taklif va tavsiyalar

Raqamli tarbiya platformalarini yaratish: Ota-onalar uchun milliy va umumturkiy tarbiya mezonlari asosida “Raqamli ota-onalik” metodik-konsultatsiya platformalarini yo'lga qo'yish lozim. Bunda professional psixologlar va ijtimoiy ish xodimlari yordamidan tizimli foydalanish tavsiya etiladi.

Yagona alifbo islohotini amalga oshirish: Turkiy dunyoning raqamli axborot makonida birlashishi uchun 34

harfli umumiy turkiy alifboni amaliyotga joriy etish va darsliklarda yagona terminologiyani qo'llash zarur.

Ilmiy hamkorlikni koordinatsiya qilish: TİKA, TÜRKSOY va Turkiy akademiya kabi tashkilotlar o'rtasida madaniy va ta'limiy loyihalarni amalga oshirishda koordinatsiyani kuchaytirish lozim. Doktorantura bosqichida tadqiqotlarning metodologik saviyasini va amaliy samaradorligini oshirish choralarini ko'rilishi kerak.

Madaniy kontentni boyitish: Ijtimoiy tarmoqlardagi buzg'unchi g'oyalarga qarshi milliy “turkiy kod” ni tarannum etuvchi intellektual raqamli o'yinlar, animatsiyalar va media mahsulotlarni ko'paytirish lozim.

Akademik aloqalarni tizimlashtirish: Turkiy davlatlar universitetlari o'rtasida umumiy akademik muloqot tarmog'ini yaratish va talabalar almashinuvidan keyingi aloqalarni institutsional darajada qo'llab-quvvatlash tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Artikov Z.S. Integratsiya globallashuvning ajralmas qismi sifatida // Journal of Marketing, Business and Management. – 2023. – Vol. 4, Issue 1. – B. 1-4.
2. Aslan F. Türk Kültürü İçerisinde Türk Aile Yapısı: Yüksek lisans tezi. – Niğde, 2018. – 123 b.
3. Atajanov J.B. Oila va oilaviy qadriyatlar tushunchalari tahlili // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 4-8.
4. Egamberdiyeva N. Oila – hayotning abadiylikini ta'minlovchi muqaddas maskan // yuz.uz. – 2022. – 8-fevral.
5. Erbay M., Aslan M.M. Türkiye ile Orta Asya Türk Devletleri Arasındaki Kültürel İletişimin Bugünkü ve Gelecekteki Durumu // Tarihin Peşinde – Uluslararası Tarih ve Sosyal Araştırmalar Dergisi. – 2022. – S. 27. – B. 76-83.
6. Ergenç S. Integration in the Turkic World: Vision of 2040 of the Organization of Turkic States // 10th International Asian Congress Proceedings Book. – Dubai, 2024. – B. 135.
7. Mukhamedzhanova S.B., Shaldarbekova A.B. Культурная интеграция как основное направление во взаимодействии тюркских государств: истоки, формирование и институционализация // Вестник Евразийского национального университета им. Л.Н. Гумилева. – 2023. – № 1(142). – С. 326-337.
8. Nafiddinova X.R. Oila va uning asosiy xususiyatlari // Innova Science. – 2023. – Vol. 2, No. 6. – B. 720-746.
9. Rahimi F. Türk Dünyası, Dil ve alfabe meselesi // Global integratsiya sharoitida turkiy tillar taraqqiyoti: muammo va vazifalar. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – B. 273-310. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1979.
10. Turkiya Milliy ta'lim vazirligi. Ta'lim texnologiyalari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari tahlili (2010–2020). – Anqara, 2021. – 150 b.
11. Вебер М. Избранные произведения. – Москва: Прогресс, 1990.
12. Челябинский А.Б. Понятие интеграции в международных отношениях: теоретический аспект // Журнал международного права и международных отношений. – 2009. – №1. – С. 29-32.
13. Ўзбекистон Республикаси Оила ва хотин-қизлар қўмитаси. Ўзбекистонда оилавий кадриятлар ва ижтимоий сўвралар натижалари бўйича таҳлил ҳисоботи. – Тошкент, 2022. – 120 б.